

## Primqul Qodirovning “Qadrim” qissasidagi obrazlar xarakteristikasining ochib berilishi

*Edilova Zamira*

*Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani  
4-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi  
ona tili va adabiyoti fani o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda Primqul Qodirovning Qadrim qissasida obraz yaratish mahorati, obrazlar xarakteristikasi, ular ruhiyatini ochib berishda badiiy detal va unsurlarning ahamiyati o’rganildi.

**Kalit so’zlar:** Realistik adabiyot, qissa, novella, obraz, personaj, tarixiy mavzu, mistika, sarguzasht asar.

Ma’lumki, xx asr boshida realistik adabiyot an’analaring kirib kelishi o’zbek milliy adabiyotida ham roman, qissa, hikoya, novella singari janrlarda keng ijod qilinishiga yo’l ochdi. Bir qator ijodkorlar ushbu janrlar rivojiga sezilarli hissa qo’shishdi. Abdulla Qodiriy, Oybek, Said Ahmad, Shuhrat, G’afur G’ulom, Primqul Qodirov, O’tkir Xoshimov xx asr o’zbek realistik adabiyoti an’analari shakllanishida o’zlarining munosib hissasini qo’shishdi.

O’zbek milliy qissachiligining ildizlari ham qadim o’tmishta borib taqalsa-da, uning to’la shakllanib ulgurgan va hozirgi ko’rinishiga kelishi ushbu ijodkorlar bilan uzbiv bog’liq. Shu jumladan, Primqul Qodirov ham qissachiligmizda bir qancha pishiq va puxta asarlari bilan o’zining o’rniga ega. Ushbu tadqiqotda yozuvchining Qadrim qissasida obraz yaratish mahorati, obrazlar xarakteristikasi, ular ruhiyatini ochib berishda badiiy detal va unsurlarning ahamiyati o’rganildi.

Bizga tanishki, syujet qissaning fundamental qismi hisoblanadi. Syujetni harakatlantiruvchi vosita esa personajlardir. Ularning asardagi missiyasi, ruhiyatining to’laqonli ochib berilishi va buning qanday yo’llar bilan amalga oshirilganligi bu asarning mohiyatini to’la anglashga o’qirmanga yo’l ochadi. “Qadrim” qissasi bilan tanishar ekanmiz, dastavval, yozuvchi yashagan davrda va hozirda ham dolzarbligini yo’qotmagan muammoga – inson qadriga murojaat qilganini ko’ramiz. Tarixiy mavzuda qalam tebratadigan yozarimiz bu safar o’z zamondoshlari ruhiyatiga va ularning muammolarini badiiy maydonga olib kirishga harakat qiladi. Yozuvchi yutuqlarini keltirib o’tishimiz lozim bo’lsa, aytishimiz kerakki, syujet dinamikasi, uning unsurlari o’rtasidagi bog’liqlik, mavzu va muammoning yaxshi tanlanganligini ayta olamiz. Asarning realistik an’analarga to’la javob berishi ham fikrimizni dalillaydigan vosita bo’lib xizmat qiladi.



Qissadagi asosiy harakatlantiruvchi obrazlar Iskandan, Zulayho, Davron va Ashur. Shuningdek, yana bir qator, Pyotr Petrovich, Bahrom, G'ulomov kabi ushbu obrazlar atrofida konflikt yaratish uchun xizmat qilgan epizodlar mavjud.

Yoziqdagi bosh qahramon Iskandar sotsialistik qolipda tipiklashtirilgan yoshligidan qiyin sharoitlarda katta bo'lган va oddiy ishchi farzandi. Shunday ekan, uning ishchan, har ishda qobiliyatli bo'lishini asarning boshidayoq sezib olamiz. Yozuvchi dinamik portretlar va ruhiy tasvirlar bilan uning xarakterini dastlabki bo'limlarda o'qirmanlarga berib bo'ladi, ammo voqealar rivojida uning xarakterida bir qancha o'zgarishlar yuzaga keladiki, bu uning tipiklashtirilishida kamchiliklar borligini ko'rsatib beradi. Qahramon tilidan aytilgan quyidagi jumalalarga e'tiborimizni qarataylik: *Qo'limga ketmon olganimda necha yoshda ekanimni aniq bilmayman. Faqat shunisi esimdaki, bir kun oyim ukalarim bilan bo'lib chopiqla chiga olmadi. Brigadir kelib do'q qilib ketdi. Keyin oyimning o'rniga men chiqdim. Darsimiz kechki smenada edi. Ishlab-ishlab o'qishga borardim". ... Yettinchini bitirgan yilim mening otam qattiq bel og'riq bo'lib, ishga yaramay qoldi. Yozi bilan men uning o'rniga choqiqqa chiqib yurdim[1.6].*

Albatta, 7-sinfdayoq hayotning achchig'ini tortgan, dala-dashtda uning tamini totib, undan so'ng texnikumda ta'lim olgan insonning keyingi jarayonlarda to'satdan o'zgarib, haddan tashqari mo'minqobil, lattamijoz insonga aylanib qoladi. Bu o'quvchilarning g'ashiga tegishi aniq. Masalan, boshidan ham bo'lмаган g'ururning kulguli tarzda ko'rinish-ko'rinish qolishi – Ashurga tashlanib qolish vaziyati, Zulayhoga pastketaverishlari ham shu qatorda. Yozuvchi obraz yaratishda o'zini o'qqa-cho'qqa urib o'tirmaydi, balki risoladagidek sovet idealidan andoza olib qo'yaqoladi, lekin bu holat ham ba'zan o'zbekchilik degan narsa qonimizga singib ketgani uchun buzilib-buzilib turadi. Masalan, u konga ishga kirishiga kasb masalasi sabab bo'ladi. O'ylab ko'rilsa, insonning qadri u oshpaz yoki masxaraboz bilan o'lchanmasligi haqida gapirish o'rniga, oshpazlik ojizlikni bildiruvchi vosita o'laroq qo'llangan. Bunga bizning o'lkalarda qadimdan ovqat hozirlash ayollarning vazifasi sifatida ko'riliши sabab bo'lган deyishimiz mumkin. Demak ko'rinish qoladiki, qadr haqida yozayotgan kishi, oshpazlarni qadrsizlantirib qo'yadi. Bular o'z o'rnida keraksiz tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki yangi kishini *shakllantirishda g'oyaviy, axloqiy, nafosat, ta'sir kuchini o'zida mujassamlashtirgan badiiy asarga xos tasviriy vositalar, o'ziga xos xususiyatlar o'quvchiga tushunarli bo'lgan taqdirdagina uning tarbiyaviy kuchi, ta'sir kuchi to'liq namoyon bo'ladi [2.3].*

Asosiy personajlardan biri Zulayho har qancha urinilmasin Abdulla Qahhor "Sinchalag" idagi Saidaga o'xshab qolgan. Saidaning xarakteri va irodasidan birozi yuqtirilgan qahramon haqida ham tuzumning nuqsi sezilib turadi deyolamiz. U bo'ysunmas, o'zini kamsitib qo'ymaydigan, o'jar, shijoatli va tadbirkor qiz sifatida asarda o'rin egallaydi. Shu barobarida yozuvchi bir narsani ham singdiradiki, har inson o'zining xohishlariga va tuyg'ulariga ega. Zulayho ham Iskandarni tanlaydi, ammo oshpaz Iskandarni emas. Asarning eng katta kamchiliklaridan biri ham ayni oshpazlikning hadeb ro'kach qilinaverishi, qahramonning kasbidan uyalishi.



Iskandarning ruhiyatidan faqrli tarzda, Zulayhoning ruhiyati asar oxirigacha saqlanib qoladi, bu uning tipiklashtirilishida kamchiliklarga olib kelmaydi. Biroq ba'zi o'rnlarda ideallashtirishda bo'rtma tasvirlar ham uchraydiki, bunday qahramon realistik adabiyotdagi obrazdan, mistik yoki sarguzasht adabiyotga bo'y cho'zib ketgan. Quyidagi parchadan buni ko'rshimiz mumkin:

- *Endi qochib qutula olmaysan. Dodla, bo'kir – hech kim eshitmaydi!*
- *Bekor aytibsan! – deydi Zulayho. – Sen meni yengsang ham mardlik bilan yengarding! Nomardlik bilan yengolmaysan...*

*...Davron uni bir siltab yuztuban qiladi. Bir oyog'i bilan ustidan bosadi-da, qo'lini bog'lamoqchi bo'lib, kamarini yecha boshlaydi.*

*Zulayhodagi qo'rquv o'rnini endi cheksiz g'azab egallaydi. Qizlik nomusi oldida joni ham ko'ziga ko'rinxaydi. U bor kuchini to'playdi-da, o'sha toshni mo'ljallab, keskin yumalaydi. Davron buni kutmagan va oyoqlari ancha noqulay turgan ekan., chalqanchasiga yiqlilib tushadi, Zulayho toshni ikki qo'llab ko'taradi. Davron unga pichqoq urmoqchi bo'lib tashlanganida Zulayho toshni unga otadi. Tosh Davronning chakkasiga qarsillab uriladi [1.74]*

O'zbek dostonlaridagi tasvirlarga uyqosh bo'lган bu tasvirlar asarga hech eshlasmagan. Yuqoridagi parchadan Davronning nomardlik qilayotgani sezilib turibdi, uning niyati amalga oshmaganidan balki o'quvchi xursand bo'lar, lekin sira ishonmaydi. Buning sababi esa vaziyat tasvirlanishida, bu ertaknamo tasvirlarda yovuzlik qilayotgan Davron – asardagi baquvvat, epchil, ancha cho'rtkesar inson shunday holatda oyog'ini noqulay qo'yishi, yiqlilib ketishi – yakkakurashlarda ham chalqanda turgan sportchi raqibini o'zini holatiga tushirib qo'yishi fantasitika hisoblanadi – Zulayhoning bo'lsa, hamma harakatining xuddi o'rta asr jangchi qizlaridek aniq bajarishiga ishonish va qabul qilish biroz mushkul.

Asarda kichik konflektlar bor bo'lsa-da, qissani konfleksiz asarlar sirasiga kirtitolamiz, chunki xulosada hamma voqealar xuddi ertakdagiday tugab, barcha murod maqsadiga yetadi, ya'ni konfliktsiz tugaydi.

Ashur va Davron ham o'zbek dostonchiligidagi qahramonlar singari zarracha ezguligi yo'q egoist kimsalar bo'lsa ham, asarning so'ngida, xudbinligini yengib, Iskandarga hurmat ko'rsatadi. Shuningdek, Pyotr Petrovich, G'ulomov, Bahrom kabi insonlarni ham shunchaki syujetning dinamikasi uchun kiritilgandek. Adib ularni yuzaki tasvirlash bilangina cheklanadi, ammo "*har qanday yirik narsa hodisani birdaniga to'liq idrok etishning iloji yo'q*" [3.3] ligi uchun biz epizodlar orqali ham asosiy qahramonlar xarakterini yaxshiroq anglashimiz mumkin. Qissadagi epizodlar esa shunchaki yoyib yuborilgandek. Qissa faqatgina Iskandarning qadri haqaida gap boradi, go'yoki, hamma joyida, uni esa bo'shab qolgan muruvvatdek joyiga qotirib qo'yish bilan asar ham yakuniga yetadi. Garchi bu kamchiliklar bo'lishiga qaramay "Qadrim" zamonasining yetakchi asarlari sirasiga qo'shila oldi. Bugungi kun talabi biroz boshqacha asarlar talabida

bo'lsa ham, bu kabi qissalar o'tgan davr adabiyotini tasavvur qilishimizda bizga yordam bera oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. P. Qodirov. Qadrim. –T., “Ilm-ziyo-zakovat”, 2022y.
2. J. Lapasob. Badiiy matn va lisoniy tahlil. –T., “O'qituvchi”, 1995y.
3. Qozoqboy Yo'lidoshev. Algomish talqinlari. –T., “Ma'naviyat”, 2002y.

